SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

YALG‘OSHEVA MOHICHEHRA OLIMOVNA

INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA INJINIRING SOHASI TALABALARINING INGLIZ TILI KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 378.091.31-059.1:811.111

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Yalg‘osheva Mohichehra Olimovna
Individual yondashuv asosida injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi 5

Ялгошева Мохичера Олимовна
Методика развития навыков английского языка у студентов инженерных специальностей на основе индивидуального подхода 27

Yalg‘osheva Mohichehra Olimovna
Methodology for developing English language skills of engineering students based on an individual approach 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 55

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

YALG‘OSHEVA MOHICHEHRA OLIMOVNA

INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA INJINIRING SOHASI TALABALARINING INGLIZ TILI KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4PhD.Ped11590 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchti.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Botirova Shaxlo Isamiddinovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Isroilova Dildora Muxtarovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Abdullayeva Lola Tohirovna pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),professor
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “24” oktabr soat 11.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (6391 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, O‘zbekiston, Samarqand, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “12” oktabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “12” oktabr dagi №12 raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E. Rustamova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.Y. Nurmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo amaliyotida injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishda individual yondashuvni joriy etish, talabalarning til darajasi, kasbiy ehtiyojlari va o‘rganish uslublariga mos differensial o‘qitish strategiyalarini qo‘llash, muhandislikka yo‘naltirilgan autentik o‘quv materiallari asosida kommunikativ, akademik va kasbiy til kompetensiyalarini rivojlantirish xorijiy tillarni o‘qitish metodikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Biroq amaliyotda individual yondashuv asosida injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik asoslari, talabalarning individual o‘quv ehtiyojlari va kognitiv xususiyatlariga mos adaptiv o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash mexanizmlari hamda o‘quv natijalarini diagnostik baholash tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ta’lim samaradorligini cheklamoqda. Shu sababli individual yondashuv asosida injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik modeli, metodik ta’minoti, adaptiv o‘qitish mexanizmlari va diagnostik-baholash tizimini ishlab chiqish hamda ularni oliy ta’lim amaliyotiga joriy etish dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda dunyo ilmiy amaliyotida injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini individual yondashuv asosida rivojlantirish, adaptiv ta’lim texnologiyalari, sun’iy intellektga asoslangan o‘quv tizimlari, raqamli ta’lim platformalari, o‘quv analitikasi, kompetensiyaga yo‘naltirilgan o‘qitish hamda personalizatsiyalangan o‘quv trayektoriyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda talabalarning individual til darajasi, o‘rganish uslubi, kasbiy kommunikativ ehtiyojlari, muhandislik terminologiyasidan foydalanish kompetensiyasi, kasbiy muloqot va akademik ingliz tili ko‘nikmalarini differensial rivojlantirish ustuvor ilmiy yo‘nalishlar sifatida e’tirof etilmoqda. Kelgusida generativ sun’iy intellekt asosida adaptiv o‘quv muhitlarini yaratish, individual o‘quv trayektoriyalarini real vaqt rejimida boshqarish, o‘quv analitikasi asosida til kompetensiyalarining rivojlanish dinamikasini monitoring qilish, muhandislik ta’limiga mos personalizatsiyalangan metodik modellarni ishlab chiqish hamda individual yondashuvning ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi uzoq muddatli samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekistonda injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish, xorijiy tillarni o‘qitishda individual yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim, raqamli pedagogik texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlarini o‘quv jarayoniga keng joriy etish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. “...Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya davri – sun’iy intellekt davriga dadil kirib bormoqda. Qaysi sohada bo‘lmasin, kim birinchi bo‘lib qat’iyat va izchillik ko‘rsatib, aniq natijalarga erishsa, o‘sha hammadan oldinda bo‘ladi”[1]. Bu borada injiniring sohasi talabalarining individual xususiyatlari, til darajasi va kasbiy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi, 2025-yil 21-oktabr.https://president.uz/uz/lists/view/8582

ehtiyojlariga mos ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish, adaptiv o‘qitish texnologiyalari, raqamli ta’lim vositalari va sun’iy intellekt imkoniyatlarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash hamda individual o‘quv trayektoriyalarini tashkil etishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tashkilotini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Individual yondashuv asosida injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. O‘zbekiston Respublikasi miqyosida olimlardan M.X.Gulyamova, N.H.Kushiyeva, K.Sh.Muradkasimova, B.G.Qulmatov, B.R.Samatova, S.T.Shirmatov, S.J.Turayev, D.A.Saimnazarova, E.Yulduz kabi olimlar[2] tomonidan Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv,

[2] Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv. Dis-2019/49-85. Dissertatsiya. 2019 yil. 262 bet; Kushiyeva N.H. Talabalarga ingliz tilini o‘qitishda klasterli yondashuv xususiyatlari. Dis-2021/37-47. Dissertatsiya. 2020 yil. 192 bet; Muradkasimova K.Sh. Ingliz tilini o‘qitishda talabalarning ko‘nikma va malakalarini baholash xususiyatlari. Dis-2020/55-26. Dissertatsiya. 2019 yil. 174 bet; Qulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yrdamida o‘qitishda cefr mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish. Dissertatsiya. 2018; Samatova B.R. Ingliz tilini o‘qitishda nofilologik yo‘nalish talabalarining motivatsiyasi (yurisprudensiya yo‘nalishi misolida). Dissertatsiya. 2020; Shirmatov S.T. Etnik madaniy aloqalar faollashuvi sharoitida talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish mazmuni (ingliz tili misolida). Dissertatsiya. 2020; Turayev S.J. Dasturiy vositalar asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish (Dasturiy injiniring ta’lim yo‘nalishi misolida). Dissertatsiya. 2019; Саимназарова Дилноза Абдунеъматовна Талабаларга инглиз тилида матн ўқишни ўргатиш инновацион технологиялари. пед.фан. бўйича фал.д-ри (PhD).... Автореф. – Т., 2021. Б-47; Yulduz, E. (2023). Nofilologik yonalishdagi talabalarga lingvokulturologiyaga oid tushunchalarni o‘rgatishda innovation yondashuv: “Qurilishvata'lim” ilmiyjurnali, 4(4.1), 815- 823.

talabalarga ingliz tilini o‘qitishda klasterli yondashuv xususiyatlari, ingliz tilini o‘qitishda talabalarning ko‘nikma va malakalarini baholash xususiyatlari, ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitishda cefr mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish, ingliz tilini o‘qitishda nofilologik yo‘nalish talabalarining motivatsiyasi, etnik madaniy aloqalar faollashuvi sharoitida talabalarning muloqot madaniyatini rivojlantirish mazmuni, dasturiy vositalar asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish, nofilologik yonalishdagi talabalarga lingvokulturologiyaga oid tushunchalarni o‘rgatishda innovation yondashuv, talabalarga ingliz tilida matn o‘qishni o‘rgatish innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid muammolar o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlari olimlaridan N.G.Alyavdina, D. Altanseseg, G.A.Gurbanova, B.D. Geldiyeva, D.A. Knyazeva, Y.S.Ryabova, O.V.Kisel, L.V.Minayeva, I.I.Molchanova kabi olimlar[3] tomonidan texnik oliy ta’lim muassasalarida muayyan maqsadlar uchun ingliz tilini o‘qitishda innovatsion metodikalardan foydalanish, talabalar uchun ingliz tili kurslari faoliyati, muhandislik sohasidagi talabalarga ingliz tilini o‘rgatishda ESP (English for Specific Purposes) yondashuvining ixtisoslashgan xususiyatlari, muhandislar tayyorlash jarayonida ingliz tilini chuqur o‘rganishga oid lingvodidaktik muammolar, injiniring yo‘nalishidagi talabalar til ko‘nikmalarining rivojlanish darajasi, maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini o‘qitishning metodik jihatlari, muhandislik yo‘nalishidagi talabalarga mo‘ljallangan ingliz tili bo‘yicha mavjud o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tahlili yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijlik olimlardan F.Abedeen, Atef Al-Tamimi, O.Y.Barabash, Barak, Mansoor Ahmed Channa, C.Marshall, G.B.Rossman, M.J.Riemer, D.Rus, M.Radhika VandPhil kabi olimlar[4] Kuvaytdagi oliy va amaliy kollejlarida ESP

[3] Алявдина Н.Г., Маргарян Т.Д. Инновационные методики в преподавании английского языка для специальных целей в техническом вузе: [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://hmbul.ru/articles/93/93.pdf; Алтанцэцэг Д. о Курсах английского языка для студентов неязыковых специальностей в монгольском государственном университете науки и технологии //формирование компетенций в условиях современных потребностей рынка труда. – 2020. – с. 255-264; Гурбанова Г. А., Гельдыева Б. Д. Esp как специализированный подход к преподаванию английского языка для инженеров //eurasiascience. – 2020. – с. 102-103; Князева Д. А., Рябова Е. С. Актуальные проблемы углубленного изучения английского языка с точки зрения лингводидактической подготовки инженеров самарской области //язык. общество. образование. – 2022. – с. 233-237; Кисель О. В. Языковые навыки у студентов инженерных специальностей //современное инженерное образование: вызовы и перспективы. – 2022. – с. 30-34; Минаева Л.В. и др. Преподавание английского языка для специальных целей: теория и практика / Моск. гос. ун-т им. М.В. Ломоносова, Ин-т гос. упр. и соц. исслед.[- М. : Yнив. гуманитар. Лицей, 1997; Молчанова И. И. Анализ существующих учебно-методических пособий по английскому языку для студентов инженерных специальностей //Актуальные проблемы развития образования в России и за рубежом. – 2014. – С. 81-89.

[4] Abedeen, F. (2015). Exploration of ESP teacher knowledge and practices at tertiary and applied colleges in Kuwait (Doctoral dissertation, University of Leicester); Atef Al-Tamimi, & Munir Shuib. (2009). Motivation and attitudes towards learning English: A study of petroleum engineering undergraduates at Hadhramout University of Sciences and Technology. GEMA Online Journal of Language Studies, 9(2), 25-59; Barabash, O.Y. (2011). Modern approaches to teaching English to the students in technical majors. The sixth international theoretical and practical conference. Modern trends and innovations in teaching foreign languages. February 25-26, 2011. Kyiv Polytechnic Institute; Barak, M. (2013). The use of cognitive knowledge and problem-solving taxonomies in teaching engineering and technology. Journal of Technology Education, 24(4), 22-39; Mansoor Ahmed Channa, Songsri Soranastaporn, Karan Supamas Engchuan, & Yuwadee Tirataradol (2013). A study of needs, problems, and wants of using English of engineering students at Quaid-e-Awam University of Engineering, Science and Technology, Pakistan. Journal of Education and Practice, 4(3), 18-26. Marshall, C., & Rossman, G. B. (1989). Designing

(*kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili*) o‘qituvchilarining bilim va amaliy faoliyatini o‘rganish, neft muhandisligi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar orasida ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi, texnik yo‘nalishlardagi talabalarga ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, muhandislik va texnologiya ta’limida kognitiv bilimlar hamda muammoni hal etish taksonomiyalaridan foydalanish, injiniring yo‘nalishidagi talabalar uchun ingliz tilidan foydalanish bo‘yicha ehtiyojlar, muammolar va istaklarni tahlil qilish, tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish metodologiyasi, globallashuv sharoitida injiniringga oid ingliz tili va muloqot ko‘nikmalarining ahamiyati, injiniring kurslarini o‘zlashtirishda yangi o‘quv tendensiyalarining tadqiqi bilan bog‘liq jihatlarini tadqiq etganlar.

Yuqorida olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ingliz tilini xorijiy yoki ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan talabalarning xorijiy til kompetensiyasini oshirish, lingvistik ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligi ta'kidlangan. Biroq, talabalarga aynan ingliz tilini o‘qitish jarayonida individual yondashuv asosida injiniring sohasi talabalarining ingiz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar chuqur tadqiq etish zarurligi mavjud.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetining FZ-245/0001874-sonli “Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi individual yondashuv asosida injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

kompetensiyaviy, kommunikativ va integrativ yondashuvlar asosida injiniringga oid ingliz tilini o‘qitish metodikasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy hamda metodologik asoslarini tizimlashtirish;

individual yondashuv asosida ingliz tilini o‘qitish jarayonida talabalarning xorijiy til kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilish;

individual yondashuv asosida injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish;

lingvodidaktik va kasbiy yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida injiniring sohasi talabalarining lingvistik, leksik, kasbiy hamda nutqiy kompetensiyalarini autentik materiallar vositasida rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilib, uning amaliyotga tatbiq etilishiga doir ilmiy-metodik tavsiyalarni asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida individual yondashuv asosida injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini individual yondashuv asosida injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish

---

qualitative research. Newbury Park, CA: SAGE Publications; Riemer, M. J. (2002). English and communication skills for the global engineer. Global Journal of Engineering Education, 6(1), 91-100; Rus D. Creative methodologies in teaching English for engineering students //Procedia Manufacturing. – 2020. – T. 46. – C. 337-343; RadhikaVandPhil, M. (2017). new trends in learning the engineering course. Journalofindustrialpollutioncontrol, 1667-1669.

mazmuni, vositalari, omillari, texnologiyasi, metodlari va strategiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (analitik-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so‘rovnomalar, testlar, kuzatish), prognostik (ekspert bahosi, baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba va matematik statistika (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tarzda taqdim etish va boshqalar) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli talabaning til darajasi, kasbiy ehtiyojlari va o‘quv uslubiga mos o‘quv mazmunini tanlashni ta’minlovchi individual-kasbiy moslashtirish komponenti bilan *talabaning dastlabki diagnostika natijalari va o‘quv jarayonidagi dinamikasini hisobga oluvchi moslashuvchan algoritm asosida* takomillashtirilgan;

muhandislik kasbiy diskursiga integratsiyani ta’minlovchi terminologik adaptatsiya, kommunikativ modellashtirish va kasbiy transfer bosqichlarini qamrab oluvchi uch bosqichli "Terminologik-Kommunikativ-Transfer" mashqlar tizimi *har bir bosqich yakunida talabaning kasbiy diskursni o‘zlashtirish darajasini nazorat qiluvchi oraliq baholash mezonlari bilan birga* ishlab chiqilgan;

kasbiy diskursga asoslangan autentik matnlar, terminologik minimum, kommunikativ vaziyatlar, differensial topshiriqlar va mezonli baholash vositalarini yaxlit tizimga birlashtiruvchi bosqichma-bosqich o‘qitish metodikasi takomillashtirilib, *uning kirish-“input” bosqichida autentik matnlar orqali taqdim etilgan terminologik minimum keyingi bosqichlarda kommunikativ vaziyatlar va* differensial topshiriqlar bilan mustahkamlanishi metodik jihatdan asoslangan;

til ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi dinamik-adaptiv monitoring mexanizmi bilan talabaning o‘z kognitiv tizimini mustaqil ravishda qayta quruvchi va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslab yangilab boruvchi *avtopoetik-refleksiv boshqaruv* tamoyili asosida *tizimli-konseptual tarzda* takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

injiniring sohasi talabalarining individual til darajasi, o‘quv ehtiyojlari, kognitiv xususiyatlari va kasbiy yo‘nalishini hisobga olgan holda ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar, mashqlar tizimi hamda o‘quv-uslubiy ta’minot ishlab chiqilgan;

talabalarning individual o‘quv trayektoriyasini shakllantirish, mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va o‘quv topshiriqlarining murakkablik darajasini bosqichma-bosqich moslashtirishga xizmat qiluvchi adaptiv topshiriqlar tizimi amaliyotga joriy etilgan;

injiniring ta’lim yo‘nalishiga mos kasbiy yo‘naltirilgan autentik matnlar, kommunikativ vaziyatlar, loyiha topshiriqlari va raqamli ta’lim resurslarini o‘z ichiga olgan o‘quv-metodik majmua ishlab chiqilib, ta’lim jarayonida qo‘llash metodikasi tavsiya etilgan;

talabalarning ingliz tili ko‘nikmalarini individual rivojlanish dinamikasi asosida monitoring qilish, o‘quv natijalarini kompleks baholash va o‘qitish jarayonini takomillashtirish imkonini beruvchi diagnostik-baholash vositalari hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, oliy ta’lim amaliyotiga tatbiq etilgan;

“*English for engineering students*” nomli elektron dastur ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligini matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot natijalari individual yondashuv asosida injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik va metodik asoslarini nazariy jihatdan boyitishi, individual o‘quv trayektoriyalarini loyihalash, adaptiv o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash hamda kasbiy yo‘naltirilgan ingliz tili ta’limini tashkil etish bo‘yicha ilmiy-metodik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan oliy ta’lim tashkilotlarida injiniring sohasi talabalariga ingliz tilini o‘qitish jarayonini individuallashtirish, adaptiv o‘quv topshiriqlari va kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv materiallarini ishlab chiqish, fan dasturlari, darslik va o‘quv-uslubiy majmualarni takomillashtirish, shuningdek, talabalarning ingliz tili ko‘nikmalarini diagnostik baholash va individual rivojlanish dinamikasini monitoring qilish amaliyotida samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Individual yondashuv asosida injiniring sohasi talabalarining ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

talabalarning ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli talabaning til darajasi, kasbiy ehtiyojlari va o‘quv uslubiga mos o‘quv mazmunini tanlashni ta’minlovchi individual-kasbiy moslashtirish komponenti bilan talabaning dastlabki diagnostika natijalari va o‘quv jarayonidagi dinamikasini hisobga oluvchi moslashuvchan algoritm asosida takomillashtirilganligiga oid taklif va tavsiyalardan Qozog‘iston Respublikasi Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro Turk universiteti, Xalqaro Farobiy nomidagi Universitet bilan hamkorlikdagi “ Global dunyoda fan va ta’limdagi innavatsion rivojlanishning omillari konsepsiyasini yaratish” nomli 2023-2026-yillarga mo‘ljallangan KZX-4779-11 raqamli fundamental xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qozog‘iston Respublikasi Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro Turk universitetining 2026-yil 2-iyundagi ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz tilini o‘qitish kontekstida axborot kommunikatsion texnologiyalari orqali o‘qitishning axborot-metodik ta’minoti takomillashtirilgan;

muhandislik kasbiy diskursiga integratsiyani ta’minlovchi terminologik adaptatsiya, kommunikativ modellashtirish va kasbiy transfer bosqichlarini qamrab oluvchi uch bosqichli "Terminologik-Kommunikativ-Transfer" mashqlar tizimi har bir bosqich yakunida talabaning kasbiy diskursni o‘zlashtirish darajasini nazorat qiluvchi oraliq baholash mezonlari bilan birga ishlab chiqilganligiga oid taklif va tavsiyalardan Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot rejasining OT-F1-049 raqamli “Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (2017-2021-yillar) nomli ilmiy oyihani bajarishda foydalanilgan va

yuqoridagi tavsiyalar ushbu loyiha doirasida nashr etilgan ishlarda o‘z aksini topgan (Jizzax politexnika institutining 2026-yil 13-mart 03-172-164-son ma’lumotnomasi). Natijada, kontekstual dinamik til o‘rganish metodikalarining integratsiyalashgan modeli ishlab chiqilib, injiniringga oid ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar tizimi takomillashtirilgan;

kasbiy diskursga asoslangan autentik matnlar, terminologik minimum, kommunikativ vaziyatlar, differensial topshiriqlar va mezonli baholash vositalarini yaxlit tizimga birlashtiruvchi bosqichma-bosqich o‘qitish metodikasi takomillashtirilib, uning kirish-“input” bosqichida autentik matnlar orqali taqdim etilgan terminologik minimum keyingi bosqichlarda kommunikativ vaziyatlar va differensial topshiriqlar bilan mustahkamlanishi metodik jihatdan asoslanganligiga oid ma’lumotlardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-3181 “Reinforcing English language competence at Karshi State university” nomli xalqaro grant loyihasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2026-yil 3-apreldagi 04/3129-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning ingliz tili kompetensiyalarini rivojlantiruvchi interfaol metodikalari ingliz tilini o‘qitish jarayonida modifikatsiyalashga xizmat qilgan;

til ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi dinamik-adaptiv monitoring mexanizmi bilan talabaning o‘z kognitiv tizimini mustaqil ravishda qayta quruvchi va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslab yangilab boruvchi avtopoetik-refleksiv boshqaruv tamoyili asosida tizimli-konseptual tarzda takomillashtirilganligiga oid ma’lumotlardan Jizzax viloyat teleradiokanalining televideniyasi orqali 2026-yil 24-mart kuni “Subhidam” ko‘rsatuvining ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (Jizzax viloyat teleradiokanali televideniyasining 2026-yil 3-apreldagi 282/13-10-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy-metodik ta’minoti yaratilgan, va rivojlantirish mexanizmlarining takomillashtirilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 123 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi,

natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning "**Injiniring sohasi talabalariga ingliz tilini o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida injiniring sohasida talabalarning xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati va xorijiy ilg'or tendensiyalar tahlili, injiniring yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitish bo'yicha amaldagi islohotlar va yondashuvlar, injiniring sohasida til ko'nikmalarini rivojlantirish bosqichlari va lingvodidaktik aspektlari tahlili keltirilgan. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, talabalarni individual tarzda maqsadga muvofiq tarzda rivojlantirishni ta'minlash uchun, uning tashqi ta'sirlarga nisbatan mustaqilligini oshirish kerak. Talaba yoshlarni til ko'nikmalarini rivojlantirish ichki manbalari mohiyatining ortib borishi natijasida, ularning mustaqil fikrlash darajalari ortadi va o'zining qiyofasi o'zgaradi.Bu jarayonda talabaning fikriy barqarorligi va atrofdagi o'zgarishlarga nisbatan bir xildagi o'ziga xos munosabati qaror topadi. Talaba shaxsining mustaqilligini uning ozodligi va erkinligi sifatida baholash kerak. D.A.Leontiyev shaxsning erkinligi va ozodligini istagan paytda boshqa yo'nalishga burish mumkin bo'lgan faol harakat sifatida talqin qiladi.[5] Shunga ko'ra ta'lim jarayonida talaba yoshlarga individual yondashuvni ta'minlash orqali til ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan izchil didaktik tizimni vujudga keltirish lozim. N.N. Podyakov talaba taraqqiyotining quyidagi yo'nalishlarini aniqlab bergan edi: aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ijodiy rivojlanish kabi.[6] A.A.Kirsanov esa talaba yoshlarni individual til ko'nikmalarini rivojlantirish natijasida, ularda sodir bo'ladigan o'zgaradigan jihatlarni ochib bergan.[7]

Jumladan, o'zaro aloqadorlik asosida fikrlash imkonini beradigan madaniy tafakkur asoslarini egallash imkoniyatlari kengayadi; talabalarning yuqori darajadagi hissiyotlarga asoslangan tasavvur etish layoqatlari rivojlanadi; ular o'zlari hamda moddiy olamni ma'naviy-axloqiy jihatdan idrok etish imkoniyatini beradigan axloqiy madaniyat ko'rinishlarini egallaydilar. Ular o'zlarining jismoniy salomatliklari va gigienalarini rivojlantirish imkonini beradigan jismoniy madaniyat asoslarini ongli tarzda o'zlashtiradilar. Yoshlarni til ko'nikmasini rivojlantirishga nisbatan mavjud bo'lgan nazariy yondashuvlarga tayanilgan holda shuni aytish mumkinki, bunday rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, ularning o'zlarining individuallligini anglashlaridadir. Talabalar o'z faoliyatlari mohiyatini anglamasdan turib, uni izchil tarzda amalga oshira olmaydilar. Chunonchi, chet tili fanining nufuzi qisqacha tushuntirishni talab qiladi. Ingliz tilini o'rgatish muayyan maqsadlar, prinsiplar, ta'lim mazmuni,metodlari, vositalari hamda hujjatlari bilan belgilanadi. Demakki, nolisoniy yo'nalishda ingliz tilini o'qitishning asosiy maqsadini aniqlashni lozim topdik. Bu talabdan kelib chiqib

[5] Леонтов А.В. Модель научной школы и практика организации исследовательской деятельности учащихся // Школьные технологии. – М., 2001. – №5. – С 147-148.

[6] Поддьяков Н.Н. Творчество и саморазвитие детей дошкольного возраста: Концептуальный аспект// ВГПУ. – Волгоград: Перемена, 1994.-48 с.

[7] Кирсанов А.А., Гурье Л.И., Курамшин И.Я., Иванов В.Г., Рогов М.Г. Методологические и методические основы профессионально-педагогической подготовки преподавателя высшей технической школы. Коллективная монография. Казань, КГТУ, 1997

esa ingliz tilini bilish va mazkur tilda erkin muloqot qilish qanday samarali amalga oshirilishi haqidagi savollarga javob topish soha mutaxassislarining vazifasidir. Ijtimoiy talabdan kelib chiqib ingliz tilini xalqaro miqyosda o‘qitishning quyidagi turlari mavjud:

*EGP (English for General Purpose*s) – umumiy maqsadlarda o‘qitiladigan ingliz tili, *EAP (English for Academic Purposes)* –ilmiy maqsadlarda o‘qitiladigan ingliz tili, *ESP (English for Specific Purposes)* – maxsus maqsadlarda o‘qitiladigan ingliz tili (masalan, masalan, tibbiyot yo‘nalishidagi tibbiyot sohasiga yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitish, injiniring yo‘nalishidagi sohalarga ajratilgan ingliz tilini o‘qitish va hokazo) va boshqalar tushuniladi. Aksariyat chet tili mutaxassislari orasida quyidagi ingliz tilini o‘rgatish maqsadlari umumiy qo‘llaniladi: *EST (English for Science and Technology)* – ilmiy tadqiqotlar va texnologyalar uchun ingliz tili, EOP (English for Occupational Purposes) kasbiy maqsadlarda ingliz tili yoki VOLL (Vocationally Oriented Language Learning) kasbiy yo‘naltirilgan til o‘rgatish va boshqalar. Ayrim Yevropa mamlakatlarida *ESP* atamasi *VOLL* ko‘rinishida qo‘llaniladi. Xalqaro miqyosda ingliz tilidan “*EFL (English As a Foreign Language)”* – xorijiy til sifatida qo‘llaniladigan til (chet tili), ingliz tili davlat tili *ESL (English As a Second Language)* –tarzida qabul qilingan atamalarda qo‘llaniladi.

“ESP” – ingliz tilini maxsus(kasbiy) maqsadlarda o‘qitish jarayonida dastlab til o‘rganuvchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish g‘oyasi ilgari surilgan.Ushbu termin XX asrning 80-yillarida Tom Xatchinson hamda Alan Uoters tomonidan ilk marotaba qo‘llanilgan. Olimlarning ilmiy konsepsiyada mazkur metodik nazariyada talabalarning motivatsiyasini inobatga olish zarur ekanligi alohida ta’kidlanadi. Ingliz tilini maxsus (kasbiy) maqsadlarda o‘qitishda asosiy e’tibor-talabalarning psixologik yoshiga mos o‘quv materialllarini tanlash, amaliy ingliz tilini kommunikant sifatida o‘rganish hamda kelajakdagi kasbiy malakalarni puxta egallashdan iborat. Injiniring sohasiga yo‘naltirilgan OTMlarda ingliz tilini o‘qitish hukumat hujjatlarida qayt qilingan. Biroq, ushbu jarayonni samarali tashkil qilish bo‘yicha yetarlicha o‘quv adabiyotlar mavjud emas. Shuningdek, shu yo‘nalish bo‘yicha tor mutaxassisliklar uchun ham darsliklar muammosi mavjudligi sir emasdir. Masalan, Samarqand arxitektura-qurilish institutida faqat injiniring fakultetining o‘zida o‘ndan ortiq ixtisosliklar mavjud bo‘lib, ularda yetarlicha darslik va adabiyotlar mavjud emas. Shu jumladan, “Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari” yoki “Kompyuter injiniringi” kabi mutaxassisliklardaham xuddi shunday muammolarga duch kelish mumkin. “ESP” orqali XX asrning 40-50-yillarida AQSH da harbiy sohada kursantlarni maxsus tayyorlash uchun yangi intensive o‘qitish usulariga ehtiyojlar namoyon bo‘la boshladi. O‘tgan asrning 70-yillarida nemis tilida so‘zlashuvchi Yevropa mamlakatlarida “ESP” atamasi muomalaga kiritildi. Avstriya, Belgiya, Germaniya Federativ Respublikasi hamda Shvetsariyada maxsus maqsadlar uchun til *“Language for Specific Purposes – LSP”* termini ta’lim bosqichlarida qo‘llanila boshlandi.

Mamlakatimizda nofilologik yo‘nalishlarda ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha yaratilgan darslik majmualarida yuqorida qayd qilingan mavzular inobatga olib o‘rgatilishi chet til bo‘yicha B2 daraja uchun ta’lim mazmunida qayd etilgan.

Ushbu mavzular orqali kommunikativ kompetensiya tarkibida lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalar rivojlantiriladi. Bugungi injiniring yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar tinglab tushunish nutq faoliyati bo‘yicha quyidagi malakalarni egallashlari talab qilingan: ma’ruzalar, taqdimotlar, munozaralarni, radio va telereportajlar, yangiliklar, intervyular, hujjatli filmlar va hokazolarni, e’lonlarni, o‘rganilayotgan til egasining tasmaga yozilgan ovozini(filmlar,hujjatlar,nutqlar va hokazo), o‘rganilayotgan til egalari o‘rtasidagi ijtimoiy muloqotni tinglab tushunish nutq faoliyatini rivojlantirish jarayonida talabalar tomonidan umumiy mazmunni tushunish uchun tinglash, tafsilotlarni tushunish uchun tinglash va ayrim ma’lumotlarni olish uchun tinglash amallari bajariladi.

Xorijiy til o‘qitish metodikasida gapirish nutq faoliyati turi 2 ga ajratiladi: *dialogik, monologik.*

Dialogik nutq bo‘yicha quyidagi malakalar egallanadi: ma’lum vazifa yoki maqsad bo‘yicha muloqotga kirishish, ijtimoiy muloqot va norasmiy suhbatga kirishish, o‘z mutaxassislik sohasiga oid bo‘lgan va bo‘lmagan rasmiy va norasmiy muhokamalarda qatnashish, muhokamaga raislik qilish va olib borish, intervyular, kelishuvlar, telefon qo‘ng ‘iroqlari.

Monologik nutq bo‘yicha ma’ruza qilish, sohaga oid fikrlarni rivojlantirish (masalan, soha mavzusi bo‘yicha), fikr bildirish va asoslash, e’lonlar, ma’lum mavzu bo‘yicha taqdimot qilish, maqolani umumlashtirish va xulosa qilish va boshqalar.

Tadqiqot ishi doirasida talabalarga ingliz tilini o‘qitishning samarali usullarni tanlash prinsiplari xususida ko‘plab nazariy adabiyotlar, darsliklar, onlayn ma’ruzalar tahlil qilindi. Prinsiplar ingliz tilini o‘qitish nuqtayi nazaridan muhim qonuniyatlar yoki qoidalar majmui deb ta’riflanadi. Chet tilini o‘qitish metodikasida prinsiplar bir nechta guruhlarga ajratiladi: lingvistik, umumdidaktik, psixologik/psixolingvistik, metodik prinsiplar shular jumlasidandir. Mazkur prinsiplar o‘zbek olimlari, g‘arb mutaxassislari, Rossiya olimlari tomonidan chuqur tadqiqotlar asosida o‘rganilgan hamda ta’lim jarayonida qo‘llash taklif qilingan. Amalga oshirilayotgan tadqiqot ishining muhim vazifalaridan biri injiniring yo‘nalishi talabalariga individual yondashuv asosida ingliz tilini samarali o‘qitish prinsiplarni tahlil qilish hamda muvofiqlarini belgilab olishdan iborat.

Tadqiqot ishining birinchi bobi injiniring yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishning ilmiy tahliliga bag‘ishlandi. Unda amalga oshirilgan dastlabki nazariy tahlil, muhandislik yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha amaldagi islohotlar tahliliga oid bo‘ldi. Birinchi paragrafda davlat ta’lim standarti talablariga muvofiq, oliy ta’lim muassasalari ixtisoslikligi chet tili bo‘lmagan bakalavriat bosqichi talabalariga CEFR xalqaro hujjat talablariga binoan B2 darajani egallash talablari tahlil qilindi. Bundan tashqari,ingliz tilini o‘rgatish umumiy talablariga binoan, EGP (English for General Purposes) umumiy maqsadlarda o‘qitiladigan ingliz tili, EAP (English for Academic Purposes)ilmiy-nazariy maqsadlarda o‘qitiladigan ingliz tili, ESP (English for Specific Purposes) maxsus maqsadlarda o‘qitiladigan ingliz tili, EST (English for Science and Technology) ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalar uchun ingliz tili, EOP (English for Occupational

Purposes) kasbiy maqsadlarda ingliz tili va VOLL (Vocationally Oriented Language Learning)kasbiy yo‘naltirilgan til o‘rganish kabi atamalar umumiy tahlil qilindi. Xususan, ingliz tili ikkita yo‘nalishda- xorijiy til sifatida ya’ni davlat tili maqomisiz EFL (English As a Foreign Language), ikkinchi til ya’ni ingliz tili davlat tili ESL (English As a Second Language) sifatida qo‘llanilishi va o‘qitilishi bayon etildi. Amaldagi ingliz tilini o‘qitish talabidan kelib chiqib, to‘rtta til ko‘nikmalari bo‘yicha talab etilgan malakalarni egallash, til kompetensiyasi-leksika, gtrammatika, fonetika,sotsiolingvistik va pragmatic kompetensiyalarni egallash malakalari xususida batafsil fikrlar bayon qilindi.

Dissertatsiyaning **“Individual yondashuv asosida injiniring sohasida ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish metodologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida injiniring sohasi talabalarining ingliz til ko‘nikmalarini rivojlantirishda individual yondashuv, injiniring sohasida talabalarning ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishning funktsional modelini takomillashtirish, injiniring sohasida ingliz tilini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va samarali usullar o‘rganilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimida amaliy jihatdan o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega bo‘lgan individual o‘qitish muammosi fanda bir necha asrdan keyin nazariy jihatdan talqin etila boshlandi. O‘quv jarayonini individuallashtirish muammosiga nisbatan nazariy yondashuvlar pedagogika fanida o‘tgan 20-30-yillarda vujudga keldi. Buning natijasida turli darajadagi tabaqalashtirilgan ta’lim shakllari o‘qitish amaliyotida sinab ko‘rildi. Bulardan eng keng tarqalgani talabalarga ularning iqtidorlarini hisobga olgan holda ta’lim berish shaklidir. O‘tgan asrning 60-70- yillariga kelib, o‘quvchilarning individualliklarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan tabaqalashtirilgan ta’limning yagona va eng asosiy shakli sifatida fakultativ darslar e’tirof etildi. Biroq, bunday darslarga barcha talabalarni bir varakayiga jalb etish mumkin emas edi. Buning natijasida sinfdagi talabalar orasida bo‘linish vujudga keldi.

Yangicha yondashuvga asoslangan holda tabaqalashtirilgan ta’limni joriy etishda ichki hamda tashqi omillar hisobga olindi (A.Makarenya,[8] B.Ma’murov,[9] M.A. Nazmuddinov [10]). O‘zbekistonda ilk bor tabaqalashtirilgan ta’lim konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiyada tabaqalashtirilgan ta’limning metodologik ssoslari va ularni tashkil etish yo‘llari ko‘rsartib berildi. Shuningdek, muayyan o‘quv predmetlari bo‘yicha tabaqalashtirilgan ta’lim mazmunini tanlash va o‘quv rejasi tarkibiga o‘zgartirishlar kiritish haqidagi nazariy xulosalar ilgari surildi. Ko‘rinib turibdiki, o‘quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish o‘ta murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisadir. Shu bilan bir qatorda, o‘quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish hodisalari orasidagi aloqadorlikni ham nazariy jihatdan asoslash taqozo qilinmoqda. V.D.Shadrikov birinchilardan bo‘lib individuallashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi g‘oyasini

[8] Макареня А.А., Суртаева Н.Н. //Интеллектуальные процессы в образовании взрослых как фактор развития интеллектуального и социокультурного потенциала регионов. Монография. - СПб.: Тюмень: ТОГИРРО, 2001

[9] Маъмуров Б. Ўқувчи шахсига йўналтирилган ўқув-билув жараёнини ташкил этишнинг педагогик шарт-шароитлари// Пед. фан. номз.дисс. автореф ... – Тошкент, 2009. –24 б.

[10] Назмутдинова М.А. Управление учебной деятельностью учащихся в условиях индивидуализации и дифференциации обучения//: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Казань, 1994

ko‘tarib chiqqan edi.[11] Bu g‘oyaning asosini turli darajadagi o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalar yaratish tashkil etadi. Bunda o‘quv jarayonini har bir talabaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish lozimligi targ‘ib qilingan. Har bir o‘quv predmetining murakkablik darajasi bilan bog‘liq tarzda guruhdagi talabalar tarkibi o‘zgarib turadi. O‘quv predmetining mazmuni va o‘quv materiallarining hajmiga ziyon yetkazmagan holda talabalar o‘quv dasturi materiallarini o‘zlashtirishga harakat qiladilar. Bunda o‘quv dasturining murakkablik darajasi talabalarning imkoniyatlari va layoqatlari bilan bog‘liq tarzda aniqlanadi.

Individuallashtirilgan ta’lim jarayonida quyidagi yondashuvlar tatbiq qilinadi:

1) talabalar faoliyatini umumiy tarzda tashxislovchi, bashoratlovchi, ta’limiy, bilim beruvchi, rivojlantiruvchi, shakllantiruvchi, qulaylashtiruvchi;

2) talabalarni o‘ziga xos tarzda moslashtiruvchi, tuzatuvchi va hk.

O‘quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirishga oid nazariy hamda tarixiy yondashuvlarni o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

O‘quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirishni turlicha nuqtayi nazardan yondashgan holda talqin etish lozim: o‘quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish, ta’lim mazmunini individuallashtirish va tabaqalashtirish.

Individuallashtirilgan o‘quv jarayonini alohida tanlab olingan o‘qituvchilar yordamida tashkil etish ham imkonsizdir. O‘quv jarayonini individuallashtirish uchun maktab ham yangicha ish shakliga o‘tishi lozim.

An’anaviy ta’limdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir qator g‘oyalar taklif qilinadi. Ularni boshqa hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi. An’anaviy ta’lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

-darsdan tashqari ta’limning turlicha shakllarini yo‘lga qo‘yish;

- talabalar mustaqil ishlarini takomillashtirish va ularning mazmunini boyitish kabilar.

Ingliz tilini o‘qitishda til ko‘nikmalarini oshirishning samarali usullari, yondashuv, texnologiya, metod, lingvotexnologiyalari mavjud. Tadqiqotimizda til ko‘nikmlalarini rivojlantirishning samarali usullari uchinchi bosqichda ingliz tilini o‘qitishda inobatga olindi. Texnologik yondashuv – o‘qituvchi va talaba munosabatlarining pedagogik jarayonni aktivlashtirish uchun xizmat qiluvchi vosita. Ushbu jarayonda o‘qituvchi fasilitator, talaba faol individga aylanadi. Har qanday lingvotexnologiya muayyan maqsadni ko‘zlaydi. Dars samaradorligini hamda ta’lim jarayonini faollashtirish maqsadida tadqiqot ishida bir qancha metodlar tanlandi. Tadqiqot ishidagi keyingi amaliy lingvotexnologiya “Case-study” (Keys/muammolli vaziyat/muammoli ta’lim texnologiyasi) – turli vaziyatlarning tavsifidan, ya’ni keyslardan foydalangan holda talabalarda aniq ko‘nikmalarni mustaqil shakllantirish texnikasidir. Mazkur metod juda qadim zamonlardan shakllanib kelmoqda. Jumladan, Qadimgi Gretsiyada muammoli savol-javoblar, Qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli baxs-munozaralardan

[11] Шадриков В.Д. Происхождение человечности: Учеб.пособие для студентов вузов – М.: Изд. корпорация «Логос», 1999. – 199 с.

keng foydalanilgan. Muammoli ta’limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyun 1894-yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo‘llagan[12]. XX asrning 60-yillarida bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda “Case-study” metodi ham samarali hisoblanadi. Uchinchi kurslarga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmada berilgan “Car industry and air pollution” (Mashina ishlab chiqarish sanoati va xavoning ifloslanishi) mavzusini misol qilib olsak, ushbu keng va katta mavzuni “Case-study” metodi yordamida o‘rgatish amalga oshirildi. Dastlab, talabalarga mashina sanoati haqida oson savollar bilan og‘zaki dialoglar tuzish, so‘ngra tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi quyidagi murakkab savollar orqali murojaat qilindi.

- *How air pollution from automobiles can be controlled?*
- *How does car pollution affect the air?*
- *If we use gasoline in diesel engine, What will happen?*
- *What is the reason for emitting the white exhaust smoke during start of the vehicle? How will you prevent this?*
- *What are some unsolved problems in automobiles and automobile industries*?

Tadqiqot ishidagi keyingi amaliy natija WebQuest, Kahoot (Vebkvest, Kaxut) ta’limiy platformalaridan foydalanishdan iborat[13]. Mazkur platformalar mavjud onlayn o‘quv resurslardan foydalanib, o‘rgangan leksik va grammatik materiallarni mustahkamlashda qo‘llanildi. Vebkvest platformasidan foydalanishning bir qancha asosiy bosqichlari mavjud. Bular quyidagilar:

-Kirish;
-Vazifa;
-Jarayon;
-Resurslar;
-Rivojlanish;
-Xulosa;

WebQuest, Kahoot (Vebkvest, Kaxut) platformalarida tajriba-sinov jarayonlariga jalb qilingan o‘qituvchilar uchun maxsus vebsaytlar yaratib berildi. Mazkur vebsaytlarga “Sports.”, “Sensors.”, “Working Robots.”, “Eco-Friyendly Planes.”, “Zero Emission.” mavzulariga doir savollar joylashtirildi. Bunda talabalarning kompyuter savodxonligi talab etiladi. “Kahoot, WebQuyest” platformalaridan foydalanish talabalarda retseptiv va produktiv nutqiy malakalarni rivojlantirishga yordam beradi. Talabalarga turli elektron platformalardan foydalanib ingliz tilini o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘.Hoshimov va I.Yoqubov[14] chet tillarni o‘qitishda qo‘llaniladigan mashqlar tizimini to‘rtta kichik guruhlarga ajratadi:

1. Gapirishni o‘rgatadigan mashqlar;

[12] Parmanova N. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari. Dissertatsiya 2024 URL https://azkurs.org/parmanova-nodiraning-maktabgacha-pedagogika-fanidan-maktabgach.html?page=7

[13] Dudeney G., Hockly N. Webquests [Elektron resurs]. — URL: https://www.teachingenglish.org.uk/professional-development/teachers/using-digital-technologies/webquests

[14] Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi : o‘quv qo‘llanma. — Toshkent : Sharq, 2003.

2. Tinglab tushunishni o‘rgatadigan mashqlar;
3. O‘qishni o‘rgatadiga mashqlar;
4. Yozuvni o‘rgatadigan mashqlar.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida injiniring (muhandislik) sohasining xalqaro maydondagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, ushbu sohada samarali faoliyat yuritish uchun ingliz tilini, ayniqsa kasbiy (professional) kontekstdagi bilim va ko‘nikmalarni egallash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Injiniring yo‘nalishidagi kadrlarni tayyorlashda ingliz tilini zamonaviy, innovatsion yondashuvlar orqali o‘rgatish nafaqat til kompetensiyasini, balki ularning xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.


